

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI


Ish haqi. 2024- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2024- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)


Shahar va tumanlar	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m		O‘shish sur‘ati, %
	2023- yil	2024- yil	
Xorazm viloyati - jami:	3 599,1	4 082,2	113,4
<i>shu jumladan:</i>			
Urganch sh.	4 827,8	5 598,8	116,0
Xiva sh.	2 893,0	3 335,5	115,3
Bog‘ot	2 946,3	3 213,3	109,1
Gurlan	2 660,1	2 968,6	111,6
Qo‘shko‘pir	2 804,1	3 086,8	110,1
Urganch	3 169,7	3 647,6	115,1
Hazorasp	2 703,8	2 951,2	109,2
Tuproqqal’a	5 004,7	5 143,2	102,8
Xonqa	2 932,9	3 224,0	109,9
Xiva	2 846,0	3 356,2	117,9
Shovot	2 809,7	3 131,1	111,4
Yangiariq	3 432,3	3 878,0	113,0
Yangibozor	2 492,7	2 940,5	118,0

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 5 598,8 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,2 %), Tuproqqal’a tumanida 5 143,2 ming so‘mni (126,0 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 940,5 ming so‘mni (72,0 %), Hazorasp tumanida 2 951,2 ming so‘mni (72,3 %), Gurlan tumanida 2 968,6 ming so‘mni (72,7 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-iyunda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023-2024 yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yil yanvar- iyun oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)


Sohalar nomi	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- iyun)		O‘shish sur‘ati, %
	2023- yil	2024- yil	
Xorazm viloyati - jami:	3 599,1	4 082,2	113,4
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	4 082,8	4 318,9	105,8
Qurilish	3 707,0	4 720,9	127,4
Savdo	2 750,2	3 254,5	118,3
Tashish va saqlash	6 919,7	8 781,7	126,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 152,5	1 822,9	84,7
Axborot va aloqa	7 157,2	7 560,7	105,6
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	10 163,9	12 168,2	119,7
Ta‘lim	2 843,7	3 292,6	115,8
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	3 192,6	3 595,3	112,6
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 626,3	3 009,0	114,6
Boshqa faoliyat turlari	4 072,1	4 670,8	114,7

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 082,2 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 13,4% ga o‘shishi kuzatildi.


2024- yil yanvar-iyun oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘shish sur‘ati qurilishda - 27,4 %, tashish va saqlash faoliyatida – 26,9 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 19,7 %, savdoda – 18,3 %, ta‘lim – 15,8 %, San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish –14,6 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda –12,6 %, sanoatda– 5,8 %, axborot va aloqada– 25,7 % darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘shish sur‘ati

(2024- yil yanvar-iyunda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, foizda)




Sanoat sohasida oʻrtacha oylik ish haqining yanvar- iyun oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2024- yil yanvar-iyun oylarida sanoat sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 318,9 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2020- yilning huddi shu davrida 2 551,0 ming soʻmni, 2021- yilda 2 864,3 ming soʻmni, 2022- yilda 3 342,1 ming soʻmni, 2023- yilda 4 082,8 ming soʻmni tashkil qilgan va oʻtgan yillarga nisbatan 169,3 % darajada koʻpaygani kuzatildi.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni
(2024- yil yanvar-iyun, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)




Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni, nominal hisoblangan ish haqi, o'rtacha oylik ish haqi.

(2024- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln so'm	Ortacha oylik ish haqi, ming so'm
	2024- y.	2024- y.	2024- y.
Xorazm viloyati – jami:	142 074	3 423840,8	4 082,2
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	20 350	527 337,0	4 318,9
Qurilish	2 350	66 564,3	4 720,9
Savdo	957	18 687,2	3 254,5
Tashish va saqlash	4 080	214 975,7	8 781,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	158	1 728,1	1 822,9
Axborot va aloqa	781	35 429,5	7 560,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 429	177 340,0	12 168,2
Ta'lim	65 796	1 299 833,7	3 292,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 506	550 210,4	3 595,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 947	35 150,9	3 009,0
Boshqa faoliyat turlari	17 720	496 584,0	4 670,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, **sanoatda** – 20 350 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 527 337,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 318,9 ming so'mni, **qurilishda** – 2 350 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 66 564,3 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 720,9 ming so'mni, **savdoda** - 957 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 18 687,2 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 254,5 ming so'mni, **tashish va saqlashda** – 4 080 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 214 975,7 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 781,7 ming so'mni, **axborot va aloqada** - 781 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 35 429,5 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 560,7 ming so'mni, **moliyaviy va sug'urta faoliyatida** – 2 429 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 177 340,0 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 12 168,2 ming so'mni, **ta'limda** -65 796 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 1 299 833,7 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 292,6 ming so'mni, **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 506 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 550 210,4 mln so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 595,3 ming so'mni, **san'at, ko'ngil ochish va dam olish** -1 947 nafar xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 35 150,9 mln. so'mni, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 009,0 ming so'mni tashkil etgan.

Qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqining yanvar-iyun oylarida yillar kesimidagi dinamikasi




2024- yil yanvar-iyun oylarida qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 720,9 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu davr 2020- yilda 2 443,3 ming so'mni, 2021- yilda 2 767,9 ming so'mni, 2022- yilda 2 804,2 ming so'mni, 2023- yilda 3 707,0 ming so'mni tashkil qilgan va o'tgan yillarga nisbatan 93,2 % ga oshgani kuzatildi.

Tashish va saqlash sohasida 2024-yilning yanvar-iyunida o'rtacha oylik ish haqi



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 781,7 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu davr 2020- yilda 4 259,7 ming so'mni, 2021- yilda 3 954,5 ming so'mni, 2022- yilda 6 397,6 ming so'mni, 2023- yilda 6 919,7 ming so'mni tashkil qilgan va o'tgan yillarga nisbatan 2,6 martaga ko'paygani kuzatildi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)


(2024-yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

Shahar va tumanlar nomi	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	Viloyatga nisbatan foizda
Xorazm viloyati	3 292,6	100,0
Urganch. sh	4 952,0	150,4
Xiva. sh	3 333,9	101,3
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	3 005,5	91,3
Gurlan	2 749,8	83,5
Qo'shko'pir	2 746,4	83,4
Urganch	2 864,9	87,0
Hazorasp	2 800,2	85,0
Tuproqqal'a	2 679,7	81,4
Xonqa	3 089,2	93,8
Xiva	2 920,1	88,7
Shovot	2 945,1	89,4
Yangiariq	3 503,9	106,4
Yangibozor	2 750,5	83,5

Ta'lim sohasida jami 65 796 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 292,6 ming so'mni tashkil etgan va 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ga o'sdi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(2024-yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.